



The role of English in the development of intercultural communication in the digital economy

Farangiz KURBONOVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

digital economy,
intercultural
communication,
English language,
global collaboration,
educational processes,
international relations,
universal platform,
business communication,
technological integration.

ABSTRACT

In the context of the digital economy, intercultural communication plays a crucial role in ensuring global collaboration. This article examines the role of English in the digital economy as a medium of intercultural dialogue and its significance in fostering international relations. English serves as a common language in business, technology, and education sectors within the digital economy. The article highlights the use of English in educational processes for the development of intercultural communication and reveals its role in creating a universal platform for international cultural exchanges.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp22-27>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Raqamli iqtisodiyotda madaniyatlararo kommunikatsiyani shakllantirishda ingliz tilining o'rnini

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Raqamli iqtisodiyot,
madaniyatlararo
kommunikatsiya,
ingliz tili,
global hamkorlik,
ta'lim jarayoni,
xalqaro aloqalar,
universal platforma,
biznes kommunikatsiyasi,
texnologiyalar
integratsiyasi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida madaniyatlararo kommunikatsiya global hamkorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ingliz tilining raqamli iqtisodiyotdagi o'rnini, madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida tutgan roli va uning xalqaro aloqalarni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ingliz tili raqamli iqtisodiyotda biznes, texnologiya va ta'lim sohalarida umumiy aloqa vositasi sifatida foydalaniladi. Maqola madaniyatlararo kommunikatsiyaning rivojlanishida ingliz tilining o'quv jarayonlarida qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratadi va bu tilning xalqaro madaniy muloqotlar uchun universal platforma yaratishdagi o'rnini ochib beradi.

¹ Assistant Lecturer, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: farangizabduraximova131@gmail.com

Роль английского языка в формировании межкультурной коммуникации в цифровой экономике

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

цифровая экономика,
межкультурная
коммуникация,
английский язык,
глобальное
сотрудничество,
образовательный процесс,
международные связи,
универсальная платформа,
бизнес-коммуникации,
интеграция технологий.

В условиях цифровой экономики межкультурная коммуникация играет важную роль в обеспечении глобального сотрудничества. В данной статье рассматривается роль английского языка в цифровой экономике, его значение как средства межкультурного общения и его влияние на развитие международных связей. Английский язык используется как универсальное средство общения в бизнесе, технологиях и образовании в рамках цифровой экономики. Особое внимание уделяется использованию английского языка в образовательных процессах для развития межкультурной коммуникации, а также его роли в создании универсальной платформы для международного культурного диалога.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi global hamkorlik va kommunikatsiya uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ingliz tili, bu jarayonda xalqaro biznes, ilm-fan va texnologiyalar sohasida asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Madaniyatlararo kommunikatsiya esa ingliz tilini o'rganish va uni samarali qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot ishida raqamli iqtisodiyot sharoitida ingliz tili o'qitishda madaniyatlararo kommunikatsiyaning ahamiyati va uning pedagogik yondoshuvlari ko'rib chiqiladi.

Hozirgi globallashtirish davrida raqamli iqtisodiyot har bir soha va yo'nalishga kirib bormoqda va har bir ma'lumot raqamlashtirilmoqda. Shu jumladan, O'zbekiston bundan mustasno bo'lmagan holda davlatimizning har bir jabhasida uning roli oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018-yilning 3-iyulida "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3832-son qarorni imzoladi [1]. Qarorda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan. Uzoq istiqbolda "raqamli" (elektron) iqtisodiyot og'ir jismoniy mehnatga mahkum odamlarning erkinlik haqidagi ko'p asrlik orzularini ro'yobga chiqirishga qodir bo'lgan vositaga aylanishi mumkin. Ko'pchilik insonlarga ijod, fan (ham fundamental, ham amaliy) vasan'at uchun keng imkoniyatlar ochiladi. Raqamli inqilob qaysidir tarmoqlar va mamlakatlarga ilgariroq va kuchliroq, boshqalarga esa kechroq va kamroq kirib keladi. Servis hizmatlari, media va ko'nilocharliklar birinchi bo'lib, ulardan keyin esa telekommunikatsiya kompaniyalari va banklar raqamlashtirishga muhtalo bo'ladi. Lekin tahlilchilarning umumiy fikrlari va kompaniyalar menejerlari orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga asosan, raqamlashtirish u yoki bu darajada hammamizga hamdaxl qiladi. Bugungi kunda bizhar bir mohiyatni u yoki bu olamga mansub sanagan holda identifikatsiya qilishimiz mumkin, lekin ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, ko'pchilik ob'ektlar uchun bunday taqsimlashni amalga oshira olmaymiz. Bunday misollar bugunning o'zidayoq mavjud: IP-kamera yoki tarmoqqa ulangan boshqa har qanday uzatgich – u qaysi olamning bir qismi hisoblanadi? Shubhasizki, ular ikkala olam hodisalirining mohiyati sanaladi. Mobil telefon bugungi kunda ko'plab ma'lumotlarni: telefon raqamlarini, tug'ilgan kun haqidagi ma'lumotlarni,

fotosuratlarini, parollarni va boshqa ma'lumotlarni saqlaydi. Biz hatto telefon bilan jismonan bog'lanmagan bo'lsakda, funksional jihatdan o'zimizni u bilan bir butun deb his qilamiz. Real va virtual dunyolarning birlashib ketish jarayoni boshlan va uni to'xtatishning imkoni yo'q deb aytish uchun alohida bir jasurlik shart emas. Real va virtual dunyolarning birlashuvi natijasidayangi gibrid dunyo hosil qilinib, unda biz uchun hozirgi kunda odatiy bo'lgan qonun va qoidalardan farq qiladigan boshqacha qonun-qoidalar amal qiladi. Shu nuqtai-nazardan aytish joizki, qolgan iqtisodiyotdan alohida ravishda bo'ladigan «raqamli» iqtisodiyot mavjud emas: "Raqamli" (elektron) iqtisodiyot bu– gibrid dunyo sharoitlarida mavjud bo'lgan iqtisodiyotdir.

Gibrid dunyo – bu real va virtual dunyolarning birlashuvi bo'lib, unda hayot uchun muhim bo'lgan barcha harakatlar virtual dunyo orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) arzonligi, yuqori samaradorligi va raqamli infratuzilmaning ochiqligi muhim omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli biznesning jamiyatga integratsiyalashuvini ham ushbu jarayonning tarkibiy qismi sifatida ko'rish mumkin.

Raqamli biznes – bu jismoniy va raqamli dunyolarni birlashtiruvchi yangi biznes-modellarning shakllanishini anglatadi. School of Management raqamli o'zgarishni zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali korxonaga qiymati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish jarayoni sifatida ta'riflaydi [8]. Ijtimoiy tarmoqlar, smartfonlar bozori, keng polosali internet ulanishi, mashinali o'qitish texnologiyalari va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi kompaniyalarning faoliyat yuritish sharoitlarini tubdan o'zgartirmoqda. Kompaniyalar ushbu o'zgarishlarga moslashish uchun yangi bozor imkoniyatlarini izlashlari yoki mavjud imkoniyatlarni o'zgartirib, o'z pozitsiyalarini mustahkamlashlari zarur bo'ladi.

Shunday qilib, raqamli transformatsiya zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi va global miqyosda keng tarqalishiga javob sifatida qaraladi. Ushbu transformatsiya ikki asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: "raqamli ko'rinishga keltirish" va "raqamlashtirish".

Birinchi yo'nalish – bu mavjud biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va robotlashtirish orqali inson ishtirokini minimal darajaga tushirishdir. Ikkinchi yo'nalish esa boshqaruv tizimini kengaytirish orqali eksponensial tashkilot yaratishga qaratilgan. Eksponensial tashkilotlar – bu masshtablash orqali o'z faoliyat ko'rsatgan sohasida boshqa tashkilotlarga qaraganda kamida o'n barobar yuqori samaradorlikka erishuvchi tuzilmalardir. Ko'p hollarda, kompaniyalarning mintaqaviy yoki xalqaro darajada kengayishi boshqaruv tizimini global miqyosda nusxalashtirishdagi murakkabliklar sabab sekinlashadi. Tez sur'atlarda rivojlanishning cheklanishi ko'pincha masshtablashdagi qiyinchiliklardan kelib chiqadi.

Bunga misol sifatida, mintaqaviy miqyosdagi kichik biznes-maktabni milliy yoki xalqaro darajada faoliyat yurituvchi tashkilotga aylantirish uchun ta'lim jarayonini o'zgartirishni ko'rsatish mumkin. Ta'lim jarayonining raqamli shaklga o'tkazilishi xarajatlarni kamaytiradi va o'quv kurslarini o'qituvchi gapiradigan tilni tushunadigan cheklanmagan miqdordagi auditoriyaga ochiq qilish imkonini beradi (MOOC – Massive Open Online Courses).

Yeksponensial tashkilot yaratishning asosiy shartlaridan biri, hizmatlarni bir xillashtirish imkoniyati hisoblanadi, agar hizmat bir xillashtirilgan bo'lsa, ushbu hizmatlarni taqdim etishni boshqarish tizimi ham bir xillashtirilishi va kelgusida to'liq

автоматlashtirilishi mumkin. Kompaniyani maqsadli bozorda virusli marketing va “sarafan” radiosi usullari orqali ilgari surish mumkin bo‘lib, bu narx bo‘yicha dempingva xizmatlar buyurtma qilish uchun raqamli interfeys hisobiga minimal harajatlar bilan biznesning “portlab” o‘shini ta‘minlaydi [4].

Biznes-jarayonni raqamli o‘zgartirishni BPMS (Business Process Management Suite) sinfidagi tizimlar yordamida amalga oshirish mumkin bo‘lgan. Raqamli transformatsiyaning ikkinchi bosqichi – bu alohida operatsiyalarni avtomatlashtirish jarayonidir. Misol sifatida mijozning ishonchliligini baholash yoki o‘quv kursi ishtirokchilari o‘rtasida test sinovlarini avtomatik tarzda o‘tkazishni keltirish mumkin [7]. Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda matematik algoritmlar yoki mustaqil qaror qabul qila oladigan, sun‘iy intellektga asoslangan “raqamli robotlar” keng qo‘llaniladi. Raqamli iqtisodiyot ta‘lim tizimi nazariyasi zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiy, ijtimoiy va ta‘lim jarayonlariga integratsiyalashgan holda o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu nazariya quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi:

1. Raqamli iqtisodiyot ta‘lim tizimining mohiyati

Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalar va axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda iqtisodiy resurslar boshqariladigan yangi modeldir. Ta‘lim tizimida bu iqtisodiyotni tushunish, boshqarish va rivojlantirish uchun yangi bilimlarni shakllantirishni anglatadi.

2. Asosiy tamoyillar

Innovatsiya va texnologiyalarni o‘zlashtirish: Talabalarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish.

Raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish: Raqamli iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan texnik, iqtisodiy va boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tahliliy yondashuv: Ma‘lumotlar asosida qaror qabul qilishni o‘rgatish.

3. Raqamli ta‘lim metodlari

Masofaviy ta‘lim: Onlayn kurslar, vebinarlar va boshqa platformalar orqali bilim berish.

AR/VR texnologiyalari: Virtual va kengaytirilgan haqiqat vositalaridan foydalangan holda talabalarga iqtisodiy jarayonlarni interaktiv ravishda tushuntirish.

Sun‘iy intellekt va avtomatlashtirish: Shaxsiylashtirilgan o‘quv rejalarini yaratish va tahliliy asbob-uskunalar bilan ishlashni o‘rgatish.

4. Ta‘lim mazmuni va raqamli iqtisodiyot fani

Raqamli biznes: Elektron tijorat, raqamli marketing va blockchain texnologiyalaridan foydalanish.

Ma‘lumotlar tahlili: Big Data, sun‘iy intellekt va bulutli texnologiyalarni o‘z ichiga oluvchi fanlar.

Texnologiya boshqaruvi: IT infratuzilmasini boshqarish va raqamli loyihalarni amalga oshirish.

5. Ilmiy-tadqiqot yondashuvlari

Raqamli iqtisodiyot bo‘yicha ta‘lim tizimida ilmiy-tadqiqot ishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Texnologik innovatsiyalarni iqtisodiyotga integratsiyalashuvi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari.

Talabalarining yangi ko‘nikmalarini aniqlash va rivojlantirish.

6. Qaror qabul qilishning raqamli mexanizmlari

Talabalar o'quv jarayonida quyidagilarni o'zlashtiradi:

Ma'lumotlar asosida strategik qarorlar qabul qilish.

Raqamli vositalar yordamida resurslarni boshqarish.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni raqamli modelda tasavvur qilish.

7. Kutilayotgan natijalar

Innovatsion iqtisodiyotni boshqaruvchi yetuk mutaxassislarni tayyorlash.

Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va biznes sohalarini raqamlashtirish uchun malakali kadrlar tayyorlash.

Madaniyatlararo Kommunikatsiya Nima?

Madaniyatlararo kommunikatsiya – turli madaniyat vakillari o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayonidir. Ushbu jarayonda ishtirokchilarning madaniy qadriyatlarini, urf-odatlarini va dunyoqarashlari katta ahamiyat kasb etadi. Hofstede, Hall va Trompenaars kabi olimlarning tadqiqotlari madaniyatlararo muloqot nazariyasining asoslarini belgilab berdi. Xususan:

- Hofstede'ning Madaniy O'lchovlar Nazariyasi: Bu yondoshuv madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tushunish uchun mezonlar belgilaydi, jumladan, individualizm va kollektivizm, masofa, noaniqlikka bardoshlilik darajasi.

- Hall'ning Kontekst Nazariyasi: Yuqori va past kontekstli madaniyatlar o'rtasidagi muloqot uslubini tavsiflaydi.

Raqamli Muhitda Madaniyatlararo Kommunikatsiyaning Ahamiyati

Raqamli oliy ta'lim platformalari talabalar va o'qituvchilarni turli madaniyat vakillarini bog'lovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bunda madaniy farqlarni inobatga olgan holda quyidagi maqsadlarga erishish mumkin:

1. Global Kompetensiyalarni Rivojlantirish: Talabalar turli madaniyatlar bilan tanishib, ular bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

2. Insonparvarlik Yondoshuvini Kuchaytirish: Madaniyatlararo tushunishni targ'ib qilish orqali nizo va tushunmovchiliklarni kamaytiradi.

3. Teng Imkoniyatlar Yaratuvchi Muhit: Har bir talaba o'z madaniyati va dunyoqarashini erkin ifoda etishi mumkin bo'lgan sharoitni ta'minlaydi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida madaniyatlararo kommunikatsiya global taraqqiyot va hamkorlikning muhim omiliga aylanmoqda. Ingliz tili raqamli makonda madaniyatlararo muloqotning asosiy vositasi sifatida maydonga chiqib, biznes, texnologiya va ta'lim sohalarida aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada keltirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tili nafaqat aloqa vositasi, balki xilma-xil madaniyatlar o'rtasida tushunishni shakllantirishda universal platforma sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'rgatish va undan samarali foydalanish raqamli iqtisodiyotda madaniyatlararo kommunikatsiyani yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2018-yil 3-iyul, PQ-3832-sonli qaror).** *O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida.* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: www.prezident.uz.

2. Raqamli iqtisodiyotning ba'zi ko'rsatmalari. Mahsuldorlik, innovatsiya va texnologiyalar eJournal. Ijtimoiy fanlarni o'rganish tarmog'i (SSRN). Kirish 27-yanvar 2020.

3. G'iyosiddinova N. Q. "Raқamli texnologiyalar va ularning kundalik hayotimizdagi roli" vol. 2 no. 16 scientific aspects and trends in the field of scientific research (2023):
4. Zaripova G. K. "Raқamli iqtisodiyot tushunchasi va uning ahamiyati" ta d q i q o t l a r jahon ilmiy – metodik jurnali 36-son_4-to'plam (2024)
5. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company. (2014).
6. Chui, M., Manyika, J., & Miremadi, M. "Where Machines Could Replace Humans—and Where They Can't (Yet)". McKinsey Quarterly. (2016).
7. Davenport, T. H., & Ronanki, R. "Artificial Intelligence for the Real World". Harvard Business Review. (2018).
8. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. "Social Media and Business Opportunities: A Framework for Success". Business Horizons. (2019).
9. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. "How Smart, Connected Products Are Transforming Competition". Harvard Business Review. (2015).
10. School of Management. Digital Transformation: Unlocking Value with Technology. (2023).
11. Tapscott, D. The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. McGraw-Hill. (2016).